O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 7 - aprel 123-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent tumani A.Navoiy mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan Toshkent tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 9-sonli umumta’lim maktabining mavjud binosini mukammal ta’mirlash va qo’shimcha 450 o‘rinli o‘quv binosi qurish hamda Bunyodkor mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan 27-sonli umumta’lim maktabidagi hom g'isht (pahsa) devorli binosi o’rniga yangi 150 o‘rinli bino qurish to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-fevraldagi 51-10-0-F/22-son farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida, Toshkent tumani A.Navoiy mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan Toshkent tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 9-sonli umumta’lim maktabining mavjud binosini mukammal ta’mirlash va qo’shimcha 450 o‘rinli o‘quv binosi qurish hamda Bunyodkor mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan 27-sonli umumta’lim maktabidagi hom g'isht (pahsa) devorli binosi o’rniga yangi 150 o‘rinli bino qurish belgilangan. Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining
6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1.Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 28-fevraldagi 51-10-0-F/22-son farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tumani A.Navoiy mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan Toshkent tumani Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 9-sonli umumta’lim maktabining mavjud binosini mukammal ta’mirlash va qo’shimcha 450 o‘rinli o‘quv binosi qurish hamda Bunyodkor mahalla fuqarolari yig‘ini hududida joylashgan 27-sonli umumta’lim maktabidagi hom g'isht (pahsa) devorli binosi o’rniga yangi 150 o‘rinli bino qurishga ruxsat berilsin.

3. Tuman hokiming o'rinbosari S.Mirsagatovga Toshkent viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi bilan birgalikda:

- arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini tayyorlash va loyiha ishlarini bajarish hamda qurilish ishlarini qat’iy loyiha asosida olib borish;

- loyiha hujjatlarini Qurilish bosh boshqarmasi qoshidagi arxitektura va shaharsozlik Kengashiga taqdim etish;

- qurilish ishlarini Toshkent viloyati Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspektsiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazish va mahsus ruxsatnoma olingandan so‘ng qurilishni boshlash;

- belgilangan tartibda kommunal xizmatlardan foydalanish uchun hisoblagichlar o‘rnatish;

- qurilish ishlari tugagandan so‘ng, foydalanishga topshirish va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirilishini ta'minlash topshirilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**